



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI
QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-sentabr*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi*

Тел. 75-221-44-28

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-sentabr oyi, foizda)




2024- yil 1-oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 6734 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 20 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 6714 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-sentabr, mlrd. so'mda)



So'nggi 5 yillik (2020- 2024- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 113,5 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2023- 2024- yillar)



2024- yilning yanvar-sentabr oyida o'sish sur'ati **108,2** % ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-sentabr oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 17207,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 108,2 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 852,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 106,3%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 14255,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,1%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2100,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,5%) tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-sentabr oyi)

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda
Qashqadaryo viloyati	17 207,8	108,2
Qarshi sh.	4 297,4	109,4
Shahrisabz sh.	1 324,7	107,9
G'uzor	691,6	110,0
Dehqonobod	534,3	106,3
Qamashi	1 183,5	106,4
Qarshi	668,4	106,5
Koson	1 402,1	107,9
Kitob	867,5	107,9
Mirishkor	583,6	106,5
Muborak	470,0	106,5
Nishon	647,5	108,2
Kasbi	547,8	106,2
Ko'kdala	563,4	110,5
Chiroqchi	1 389,0	107,7
Shahrisabz	608,6	113,1
Yakkabog	827,9	106,3

2024- yilning yanvar-sentabr oyida 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan viloyatning Shahrisabz (113,1%), Ko'kdala (110,5%) va G'uzor tumanlarida (110,0%), chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qarshi shahri 25,9 % bilan 4297,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Muborak tumani 2,8 % bilan 470,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




Hajmi, mlrd. so'm

Qarshi sh.	4297,4
Koson	1402,1
Chiroqchi	1389,0
Shahrisabz sh.	1324,7
Qamashi	1183,5
Kitob	867,5
Yakkabog'	827,9
G'uzor	691,6
Nishon	647,5
Shahrisabz	608,6
Mirishkor	583,6
Ko'kdala	563,4
Kasbi	547,8
Dehqonobod	534,3
Muborak	470,0


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-sentabr oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 14255,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 8,1 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 82,8 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 6,3 % ga o'sdi va 852,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 5,0 % ulushiga to'g'ri keldi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Mirishkor va Nishon (99,2 %), Qamashi (99,0 %), Dehqonobod (98,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 5,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shahrisabz tumani (16,1 %), Qarshi shahri (8,2 %), Ko'kdala (7,0 %) va Koson (6,0 %) tumanlarida kuzatildi.



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)

Qarshi sh.	14445,0	Kasbi	2550,4
Shahrisabz sh.	8938,4	Ko'kdala	2952,9
G'uzor	3087,4	Chiroqchi	5136,9
Dehqonobod	3324,8	Shahrisabz	2573,4
Qamashi	4 003,7	Yakkabog'	2908,0
Qarshi	2432,3		
Koson	4455,4		
Kitob	3054,4		
Mirishkor	4468,7		
Muborak	4 995,1		
Nishon	3851,9		

2024- yilning yanvar-sentabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 4793,9 ming so'm (2023- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 105,8 %)ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qarshi va (14445,0 ming so'm), Shahrisabz shaharlari (8938,4 ming so'm) va Chiroqchi tumanlari (5136,9 ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-sentabr), foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar-sentabr)**

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda
Qashqadaryo viloyati	854,2	105,2
Qarshi sh.	81,7	106,1
Shahrisabz sh.	17,4	108,8
G'uzor	56,6	104,7
Dehqonobod	32,9	106,3
Qamashi	65,6	106,1
Qarshi	-	-
Koson	87,0	104,2
Kitob	54,5	104,3
Mirishkor	13,7	107,6
Muborak	51,2	108,4
Nishon	37,3	105,1
Kasbi	23,5	108,7
Ko'kdala	77,9	103,0
Chiroqchi	179,7	106,6
Shahrisabz	39,5	101,0
Yakkabog'	35,7	107,7


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar
aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda
(2024- yil yanvar-sentabr)**















**Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm
(2024- yil yanvar-sentabr)**



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-sentabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2100,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023 - yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 109,5 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva), (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 854,2 mlrd. so'mni (105,2 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1246,0 mlrd. so'mni tashkil etdi (108,4 %).












2024-yilning yanvar-sentabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 854,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (462,1 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>462,1 mlrd. so'm</p>  <p>54,1 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>135,8 mlrd. so'm</p>  <p>15,9 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>40,1 mlrd. so'm</p>  <p>4,7 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>58,9 mlrd. so'm</p>  <p>6,9 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>23,1 mlrd. so'm</p>  <p>2,7 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>23,9 mlrd. so'm</p>  <p>2,8 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>41,9 mlrd. so'm</p>  <p>4,9 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>25,6 mlrd. so'm</p>  <p>3,0%</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>8,5 mlrd. so'm</p>  <p>1,0 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>17,9 mlrd. so'm</p>  <p>2,1 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>2,3 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>14,1 mlrd. so'm</p>  <p>1,6 %</p>

2024- yilning yanvar-sentabr oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1246,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 858,8 mlrd. so'm, qo'y va echkilar – 332,7 mlrd. so'mni, otlar – 48,6 mlrd. so'mni, parrandalar – 6,3 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>549,7 mlrd so'm</p>  <p>44,1 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>2 39,3 mlrd so'm</p>  <p>19,2 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>69,8 mlrd so'm</p>  <p>5,6 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>191,9 mlrd so'm</p>  <p>15,4 %</p>	<p>Otlar</p> <p>48,6 mlrd so'm</p>  <p>3,9 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>140,8 mlrd so'm</p>  <p>11,3 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>1,2 mlrd so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>5,1 mlrd so'm</p>  <p>0,4 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,0 mlrd so'm</p>  <p>0,0 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,0 mlrd so'm</p>  <p>0,0 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1525 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1525 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-sentabr)

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	11 662,4	109,3
Qarshi sh.	155,9	106,7
Shahrisabz sh.	34,6	114,3
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	17,6	97,6
Dehqonobod	9,8	105,7
Qamashi	9,7	106,5
Qarshi	23,6	111,9
Koson	18,4	111,4
Kitob	42,0	103,1
Mirishkor	6,2	108,6
Muborak	25,6	157,8
Nishon	44,8	111,4
Kasbi	9,2	101,2
Ko'kdala	8,6	110,3
Chiroqchi	17,4	105,2
Shahrisabz	10,7	100,8
Yakkabog'	14,5	103,4

2024- yilning yanvar-sentabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 11662,4 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 93,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd. so‘m	Ulushi, foizda
Viloyat bo‘yicha	2 645,3	109,2
Qarshi sh.	2 295,1	105,1
Shahrisabz sh.	9,1	113,5
<i>tumanlar:</i>		
G‘uzor	2,6	143,3
Dehqonobod	4,6	121,5
Qamashi	1,4	150,4
Qarshi	211,0	162,8
Koson	11,2	119,2
Kitob	19,8	112,2
Mirishkor	7,7	124,7
Muborak	7,8	122,1
Nishon	11,8	126,5
Kasbi	20,2	3,0 m.
Ko‘kdala	2,6	150,7
Chiroqchi	22,2	110,3
Shahrisabz	0,5	110,3
Yakkabog‘	17,7	104,2


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qarshi shahri (2 295,1 mlrd. so‘m), Qarshi (211,0 mlrd. so‘m) va Kasbi (20,2 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd so'm)




2024- yilning yanvar-sentabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 2645,3 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,2 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1457,6 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 130,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 1187,6 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 91,2 %)ni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'atlari, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda



Respublika bo‘yicha 2024- yilning yanvar-sentabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 5358,5 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 5,7 % ga o‘sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

11,3 %

603,7 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

88,7 %

4754,8 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 4754,8 mlrd.so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,5 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 88,7 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-sentabr)

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	5358,5	105,7
Qarshi sh.	2145,7	112,8
Shahrisabz sh.	469,5	111,2
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	142,0	101,1
Dehqonobod	28,4	119,5
Qamashi	267,2	170,2
Qarshi	395,5	91,2
Koson	332,7	82,9
Kitob	249,8	99,5
Mirishkor	54,7	90,7
Muborak	84,6	108,3
Nishon	39,1	88,0
Kasbi	81,4	45,2
Ko'kdala	11,3	100,2
Chiroqchi	97,1	96,7
Shahrisabz	89,2	119,2
Yakkabog'	199,6	111,3

2024- yil 1- oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2298 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 8 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2290 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Qamashi (170,2 %) , Dehqonobod (119,5 %) tumanlari, Shahrisabz (119,2 %), Qarshi (112,8 %) shaharlarida kuzatildi.